

## OLIV TA’LIM MUASSASALARIDA CHIZMACHILIK FANINI O’QITISHNING HOZIRGI KUNDAGI HOLATI

*Toshpulatov Faxriddin Uralovich*

*Termiz davlat pedagogika instituti o’qituvchisi, Termiz sh., O’zbekiston*

*e-mail: [toshpulatov@terdupi.uz](mailto:toshpulatov@terdupi.uz)*

**Annotasiya:** Oliy ta’lim muassasalarida chizmachilik fanini o’qitishda grafik ta’limni rivojlantirishning pedagogik nazariya va amaliyotdagi holati, talabalarga chizmachilik fanlarini o’qitishda chizmachilik darslarida talabalarni grafik ta’limga qiziqishlarini oshirish jarayoni ochib berilgan.

**Kalit so’zlar:** Oliy ta’lim, Chizmachilik, pedagogik texnologiyalar, texnika, kompyuter, talaba.

**Аннотация:** раскрыто состояние педагогической теории и практики развития графического образования при обучении рисованию в высших учебных заведениях, процесс повышения интереса учащихся к графическому образованию на уроках рисования при обучении студентов рисованию.

**Ключевые слова:** высшее образование, рисование, педагогические технологии, техника, компьютер, студент.

**Abstract:** the state of pedagogical theory and practice of the development of graphic education in teaching drawing in higher educational institutions, the process of increasing students' interest in graphic education in drawing lessons when teaching students to draw is revealed.

**Keywords:** higher education, drawing, pedagogical technologies, technique, computer, student

Respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy kamoloti yosh avlodning sa’y-harakatiga bog’liq ekanligi endi hech kimga sir emas. Davlat dasturi mamlakatimizda olib borilayotgan ta’limiy islohotlar tizimida chizmachilik faniga ham munosabatni borligi va ularga hukumatimiz alohida e’tibor bilan qarayotganligi e’tiborlidir<sup>9</sup>.

Jonajon diyorimiz o’z mustaqilligini qo’lga kiritgandan so’ng yurtimizda qator samarali islohotlar amalga oshirila boshladi. Barcha sohalarda bo’lgani kabi ta’lim sohasini ham istiqbolli rivojlantiruvchi tub islohatlarga qo’l urila boshladi. Bu sohani rivojlantirishga doir qator rejali dasturlar ishlab chiqildi va asta sekinlik bilan amalda qo’llanildi.

Mazkur rivojlantiruvchi islohotlar avvalo pastki pog’onalardan boshlangani kabi ta’lim bo’g’inida ham quyi qismdan boshlandi. Ko’p o’tmay bu ishlar o’z

---

<sup>9</sup> Karimov I.A.. Barkamol avlod-0’zbekiston laraqqiyolining poydevori-T. "Sharq" 1997 yil

natijalarini ko‘rsata boshladi. Ta’lim tizimidagi barcha sohalar rivojlantirildi.

Texnikaning asosini tashkil etuvchi fanlar qatorida chizmachilik fanlari yetakchi o‘rin egallaydi. Bejizga “Chizmachilik-texnikaning tilidir” deyilmagan. Boisi chizmachilik fanlarisiz texnika taraqqiyotini tasavvur e’tish mushkul. Mustaqillik yillarida chizmachilik faniga alohida e’tibor qaratildi<sup>10</sup>. “Ta’lim to‘g‘risida”gi va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” jamiyatni harakallantiruvchi kuch - shaxs deb ko‘rsatilgan. Bu hususiyatlarni hisobga olgan holda ta’lim tizimining asosiy bo‘sqichini hisoblangan oliy ta’limda chizmachilik tanlarini o‘qitilishiga alohida e’tibor qaratilmog‘i lozim hisoblanadi. Shu o‘rinda bir narsani ta’kidlab o‘tish joizki, yurtimizda yaratilgan qadimiy inshootlar, noyob tasviriy, me’moriy asarlarga maftun bo‘lib qolarkanmiz, shunday yuksak badiyatni bunyod etgan me’mor, musavvir va haykaltaroshlarning san’ati, mahoratidan qalbimizda iftixor xissiyotlari uyg‘onadi. Bularning asosida albatta chizmachilik fanining o‘rni kattadir. Buyum va narsalarni tekislikda tasvirlash qadim zamonlardan beri kishilarning e’tiborini jalb qilib kelgan. Arxiv hujjatlarini va arxeologik qazilmalar me’morchilik va muhandislik grafikasi XV asrdayoq O‘rta Osiyoda mavjud bo‘lganligi to‘g‘risida guvohlik beradi. Hali harf yozuvlar paydo bo‘lmasidan avval kishilar o‘z fikr va maqsadlarini grafik tasvirlardan foydalanib ifodalanganlar. Ishlab chiqarish, fan texnika, madaniyat va san’at taraqqiy etgan sari grafik tasvirlar ham asta-sekin rivojlanib, takomillashib borgan. Texnikaning rivojlanishida O‘rta Osiyolik mashhur olimlarning hissasi behisobdir<sup>11</sup>. Abu Ali ibn Sinoning yuk ko‘targich mexanizmi bunga misol boda oladi. Tarixiy manbaa materiallari va yangi zamonaviy texnik taraqqiyot yangiliklarini o‘zaro uyg‘unlashtirgan holda o‘quv jarayonini tashkil qilish, intellektual salohiyatli kadrlarni tayyorlash hozirgi kun talabi bo‘lib qolmoqda.

Chizmachilik fanini o‘qitishda eng avvalo o‘quv xonalari har taraflama talabga javob bermog‘i muhim ahamiyat kasb etadi. Afsuski hozirgi kunda oliy ta’lim muassasalarida o‘quv xonalari talab darajasida deb bo‘lmaydi. Xonalar yetarlicha yoritilmaganligi, jihozlanmaganligiga guvoh bo‘lamiz. Shu o‘rinda o‘zimizning tavsiyalarimizni berib o‘tamiz:

- o‘quv xonasining gigiyenik jihatdan talabga javob berishi;
- o‘quv xonalarining yorug‘ bo‘lishi;

---

<sup>10</sup> Садатов, Ч. Х., Г. Т. Нарматова, and М. Б. Хайдарова. "ОВЛАДЕНИЯ ГРАФИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДЕРЕН В СРЕДИ;ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЕ." *Матрица научного познания* 8 (2020): ; 28- 131.

<sup>11</sup> Sh Murodov. I. Yakimov. A.Xolmurzayev, M.Jumayev, A.To‘xtayev. Chizma geomelriya. "Iqlisod -moliya". 2010

- chizmachilik fani uchun maxsus ishlab chiqilgan partalar;
- o‘quv jihozlari;
- maxsus doskalar;
- kompyuter jihozlari;

E’tibor berib qarajak ko‘plab kasb-hunar maktablarida chizmachilik sohasiga ajratilgan soatlar ancha ko‘p, bu esa o‘quvchilarni bilim olishlari uchun yetarli hisoblanadi. Endi o‘ylab ko‘raylik dars berayotgan kadr o‘zi mukammal bilmagan narsalarni o‘quvchilarga qanday qilib o‘rgatadi. Natijada oliy ta’lim dargohlariga tayyorlanayotgan kadrlar qanday qilib yetuk ilm sohibi bo‘lib chiqadi. Buni oldini olish maqsadida oliy ta’lim tizimida bu sohalarga doir chizmachilik fanlarini soatlarini yaxshilash talab etiladi.

Shu o‘rinda o‘zimizni bir qator tavsiyalarimizni berib o‘tamiz:

- pedagog kadrlar tayyorlanayotgan oliy dargohlarda chizmachilik sohasini alohida yo‘nalish sifatida tashkil etilishi;
- umumiy o‘rta talim maktablarida va kasb-hunar maktablarida keng ko‘lamda o‘tilayotgan chizmachilik fanlarini soatlarini oshirish;
- kasb-hunar kollejlarda mutaxassislik fani silatida o‘qitilayotgan chizmachilik fani sohasini alohida yo‘nalish sifatida tashkil etilishi.

Yurtimizning boshqa bilim dargohlarida ham ahvol xuddi shu tarzda desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Keling endi “Proyeksion chizmachilik” bo‘limiga bir necha oliy ta’lim muassasalarida ajratilgan soatlarga to‘xtalib o‘tsak:

- Toshkent davlat avtomobil yo‘llar institutida - muhandislik grafikasi bo‘limiga 30 - soat, “Proyeksion chizmachilik” bo‘limi shu bo‘lim ichida o‘qitiladi;
  - Toshkent davlat texnika universitetida - “Proyeksion chizmachilik” bo‘limi, muhandislik grafikasi bo‘limi ichida o‘qitiladi. Bu oliy dargohda mutaxassisliklar bo‘yicha proyeksion chizmachilik bo‘limi 120 soat, 98 soat, 72 soat, 42 soat o‘qitiladi;
  - Toshkent to‘qimachilik va vengil sanoat institutida - “Proyeksion chizmachilik” bo‘limi bor yo‘g‘i 12 soat o‘qitiladi;
  - Samarqand davlat universitetida - "Proyeksion chizmachilik" bo‘limi 114 soat o‘qitiladi;
  - Toshkent temir yo‘l muxandislari institutida - “Proyeksion chizmachilik” bo‘limi 12 soat o‘qitiladi;
  - Toshkent arxitektura qurilish institutida - “Proyeksion chizmachilik” bo‘limi muxandislik grafikasi bo‘limiga ajratilgan 72 soat ichida o‘qitiladi;
  - Termiz davlat universiteti - 60 soat o‘qitiladi;
- Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga nazar soladigan bo‘lsak nafaqat

"Proyeksion chizmachilik" bo'limiga balki chizmachilik fanlariga ajratilgan 30 soat kamligini guvohi bo'lamiz. Qanday qilib mukammal bilim olmagan kadr ertaga o'z sohasida murg'ak qablarda yurt kelajagi uchun olovni yoqa oladi. Bu chizmachilik fanlariga ajratilgan soatlar bo'yicha muommo bo'lsa, endi asosiy muammolardan biriga to'xtalib o'tsak.

Asosiy muammolardan biri hali-haligacha darslar eski an'anaviy shaklda ya'ni asosiy ro'lda o'qituvchi. Bu muommoni hal qilmasdan turib boshqa muommalarni hal qilish qiyin kechadi. Sabab har-bir sohada o'sha sohaning yetuk malakali kadrlari laoliyat olib borsalar qolgan muommolar o'z-o'zidan bartaraf bo'ladi.

Bizning fikrimizcha chizmachilik darslarini o'tishda eski an'anaviy shakldan voz kechadigan vaqt keldi. Chizmachilik darslari endilikda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilishi ancha samarali natijalar bermoqda. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning chizmachilik darslariga amaliy tatbig'i mavzu mohiyatini dars davomida talabalarga bosqichma-bosqich, mukammal tarzda yetkazib berish imkonini keltirib chiqaradi. Bugungi kunda yana bir achinarli holat pedagog kadrlarning o'zi talab darajasida emasligi. Chizmachilik fanini o'qitishda pedagog kadrlar talab darajasida bo'lmasa yuqoridagi aytib o'tilgan muammo hal qilinmaydi. Ming afsuslar bilan aytish joizki hozirgi vaqtda ham chizmachilik darslarini eski shaklda olib barayotgan pedagoglar ham yo'q emas. Ular darslarni asosiy qismini talabalarga konspekt yozdirish bilan o'tkazmoqdalar. Buning boisi o'zlari yetuk mutaxassis kadr emasligi, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalana olmasligidir<sup>12</sup>.

Bundan kelib chiqadiki hozirgi kundagi pedagog kadrlar quyidagi talablarga javob bermog'i lozim:

- o'z sohasining yetuk malakali mulaxassisi bo'lmog'i;
- darslarni to'g'ri taqsimlay olishi;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalar mohiyatini to'la anglab yetishi;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalardan to'g'ri foydalana olishi;
- komyuter texnologiyalaridan unumli foydalanishi;
- talabalarni darsga qiziqitira olishi;
- mavzu mohiyatini talabalarga to'laqonli yetkazib berishi;
- barcha talabalar bilan birday ishlay olishi;
- talabalar bilimini to'g'ri baholay olishi;

Endigi muammo chizmachilik darslarida ko'rgazmali materiallar sifatida

---

<sup>12</sup> Sh Murodov. I. Yakimov. A.Xolmurzaycv, M.Jumayev, A.To'xtaycv. Chizma geomclriya. "Iqlisod -moliya". 2010

faqatgina plakatlardan foydalanilishi. Negadir texnika asrida ham chizmachilik darslarida hali hanuzgacha faqatgina plakatlardan foydalanilayotganligiga guvoh bo'lamiz. Chizmachilik ayniqsa proryeksion chizmachilik bo'limini talabalarga tushuntirish mushkul. Shuning uchun ham talabalarga darslar jarayomda animatsion effektlar yordamida tayyorlangan mavzuga doir qisqa video roliklar talabalarga namoyish etilishi mavzuni yanada mustahkamlaydi va talabalarning tushunishi osonlashadi, shuning bilan birga ularning fazaviy tassavuri, mantiqiy fikrlashlari ham o'sadi<sup>13</sup>.

Nega talabalar berilgan mustaqil ishlarini internetdan tayyorini olishga o'rganishgan? Bu savolga javob topish qiyin emas o'qituvchi talabaga mustaqil ish berayotgan mahal quyidagi adabiyotlardan foydalanasizlar deb adabiyotlar ro'yxatini o'qiydi. Kutubxonada chet el adabiyotlarini qo'ya turing o'zimizning ona tilimizda chop etilgan adabiyotlarni ham topish qiyin. Aytingchi, talaba endi internetdan tayyorini olmay yana nima qilsin. Bu muammoni ham hal qilmoq darkor.

Bu muammolar bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida chizmachilik fanlarini o'qitish birmuncha sustligidan dalolat beradi. Bu muammolarni oldini olish, bartaraf etish yo'lida bir muncha samarali ishlar olib borilmoqda.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish joizki oliy ta'lim muassasalarida chizmachilik fanlariga alohida e'tibor berib o'qitilmog'i kerakligi muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa bu fanni alohida yo'nalish sifatida o'qitilishi maqsadga muvofiqdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Murodov Sh va boshqalar, Chizma geometriya. Oliy pedagogika o'quv yurtlari uchun darslik, Toshkent, "Iqtisod-moliya" 2008-y.
2. Uralovich, Toshpulatov Fakhridin. "Conducting classes on fine arts based on information and communication technologies." *International Engineering Journal For Research & Development* 6.ICDSIIL (2021): 3-3.
3. Toshpulatov, Faxriddin Uralovich, Ramazon Erkin Ogli Norqochqorov, and Xayriniso Nurmumin Qizi Maxmudova. "xalq amaliy san'atining chizmachilik fani bilan bog'liqligi." *Academic research in educational sciences* 2.2 (2021).
4. Faxriddin U. T., qizi Maxmudova X. N. TALABALARGA CHIZMACHILIK FANINING QURILISH CHIZMACHILIGI BO 'LIMINI O

---

<sup>13</sup> Садатов, Чори. "Обучение рисованию обнаженного мужского тела с передней стороны с карандашным рисунком." *Общество и инновации 'С..np* (2021): 361-365.

‘RGATISHDAGI BA’ZI BIR TAVSIYALAR //Международная конференция академических наук. – 2022. – Т. 1. – №. 15. – С. 18-23.

5. Uralovich T. F. Conducting classes on fine arts based on information and communication technologies //International Engineering Journal For Research & Development. – 2021. – Т. 6. – С. 3-3.

6. Toshpulatov F. USE OF GEOMETRIC PATTERNS AND THEIR TYPES FROM ELIMINATIONS OF DRAWING AND APPLIED ART IN ARCHITECTURAL FACILITIES //Физико-технологического образование. – 2022. – Т. 1. – №. 1.

7. Faxriddin Uralovich Toshpulatov, Ramazon Erkin Ogli Norqochqorov, Hayriniso Nurmumin Qizi Maxmudova XALQ AMALIY SAN'ATINING CHIZMACHILIK FANI BILAN BOG'LIQLIGI // Academic research in educational sciences. 2021. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/xalq-amaliy-sanatining-chizmachilik-fani-bilan-bogliqligi> (дата обращения: 17.08.2022).

8. Toshpulatov F. U., Norkochkarov R. E. O., Mahmudova H. N. Q. THE RELATIONSHIP OF FOLK APPLIED ARTS WITH THE SCIENCE OF DRAWING //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 2.

9. Faxriddin Uralovich Toshpo‘Latov, Ra’No Barat Qizi Turoпова Bolalarni o‘yin texnologiyalari asosida kasb-hunarga qiziqishlarini shakllantirishda rivojlantiruvchi o‘yinlar // Science and Education. 2021. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/bolalarni-o-yin-texnologiyalari-asosida-kasb-hunarga-qiziqishlarini-shakllantirishda-rivojlantiruvchi-o-yinlar> (дата обращения: 17.08.2022).

10. Toshpulatov F. U., Turoпова R. B. Games that develop children's interest in the profession based on game technology //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 487-491.

11. Urolovich T. F. CHIZMACHILIK DARSLARIDA AMALIY SAN’AT ELEMENTLARIDAN FOYDALANIB TARKIBIDA TUTASHMA ELEMENTLAR QATNASHGAN NAQSH NAMUNALARINI CHIZISH //Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 158-162.

12. Toshpulatov F. U., Murodaliyevna T. F. DEVELOPMENT OF THE SKILLS OF STUDENTS TO AVOID TYPICAL ERRORS WHEN PERFORMING CUTTING AND CUTTING //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – Т. 5. – С. 70-74.

13. Urolovich T. F. et al. TASVIRIY SAN AT DARSLARIDA